ISSN: 3060-4613

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI

O'zbekiston Milliy Pedagogika Universiteti



№10(4)
2026

13.00.00 Pedagogika fanlari
13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
13.00.03 Maxsus pedagogika
13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohalari va bosqichlari bo'yicha)
13.00.07 Ta'limda menejment
13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
07.00.00 Tarix fanlari
19.00.00 Psixologiya fanlari
01.00.00 Fizika-matematika fanlari
02.00.00 Kimyo fanlari
03.00.00 Biologiya fanlari
09.00.00 Falsafa fanlari
10.00.00 Filologiya fanlari
11.00.00 Geografiya fanlari

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Elektron nashr. 586 sahifa,
20-oktyabr, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:
Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:
Ashurov Ramzidin Ramazonovich – Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (Phd), dotsent

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI
Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Karimova E.G. – Sotsiologiya fanlari nomzodi, dotsent
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Raxmonova Z. A. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Sayimova D. K. – texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ
Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:
Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:
Ashurov Ramzidin Ramazonovich – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:
Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician
Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician
Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor
Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan
Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Shermuhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor
Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor
Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor
Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor
Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)
Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)
Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)
Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)
Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)
Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)
Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor
Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor
Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers "Yangi O'zbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor
Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)
Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor
Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor
Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor
Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service
Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor
Rakhmonova Z.A. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor
Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)
Sayimova D. K. – Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences
Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor
Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor
Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics
Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor
Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region
Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences
Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:
Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:
• Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
• Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)
Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):
• Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
• Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669363** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA CONTENTS СОДЕРЖАНИЕ

MUNDARIJA

Pedagogical Model for Developing Students' Communicative Competence: Organisation of Experimental Work and Evaluation of its Effectiveness 10
Mukhamedova Matlyuba Satvaldiyevna, Xudoyberdiyev Olloqul Isaqovich

Bakalavriat darajasida bo'lajak matematiklarning kasbiy hamda amaliy malakalarini rivojlantirish usullari ... 17
Abduraxmonov Abdumo'min, Sheraliyev Aliboy Tulboyevich

Sport mashg'ulotlarini real vaqt rejimida boshqarishda ter biomarkerlarini o'lchovchi taqiladigan biosensorlar 20
Meliqo'ziyev Azizjon Adxamjon o'g'li

Ekstremal issiqlik sharoitida sportchilarning ish qobiliyatini oshirish shakllari: akklimatsiya, sovitish va individual gidratatsiya dalillari 26
Qodirova Shahlo Shavkatjon qizi

Mikroorganizmlarda fermentatsiya orqali energiya hosil bo'lishi va uning biotexnologik ahamiyati 31
Raxmatullaeva Maxfuza Igamberdiyevna

Bo'lajak pedagoglar tayyorgarligida learning analytics asosidagi metodik ta'minotning mazmuni va tuzilishi 37
Akbarova Sevaraxon Xusanboy qizi

Sovet davridan mustaqillik davrigacha O'zbekistonda suv siyosatining tarixiy transformatsiyasi: Orolbo'yi inqirozi misolida 45
Dadaboyev Nodirbek Ergashali o'g'li

Digital SAT matematika bo'limida maxsimal (800 ball) natijaga erishish strategiyalari va desmos interfaol imkoniyatlaridan foydalanish 51
Abdullayev G'ayratjon Mutalipovich

Ta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan pedagoglarning, kreativ yondashuv asosida talabalarning nutq va tafakkurini rivojlantirishga oid nazariy bilim hamda amaliy malakalarga egaligi 55
Abdullayeva Mavluda Aribovna

Bo'lajak pedagoglarda pedagogik improvizatsion ko'nikma va malakalar 62
Ablokulov Sherali Davronovich

Interaktiv platformalar vositasida bo'lajak pedagoglarning texnologik-amaliy kompetensiyasini rivojlantirish: elektron ta'lim resurslarini yaratish tajribasi 66
Maxmudov Abduxalim Xamidovich, Yo'ldashev Axrorjon Egamnazar o'g'li

Elektr yoritish fanini o'qitishda yangi interfaol metodlarning ahamiyati 71
Nasretdinova Feruza Nabiyevna

Developing Methodological Decision-Making Skills in Pre-Service English Language Teachers Through Clil-Based Tasks 75
Nilufar Achilovna Tuxtayeva

Developing Linguocultural Competence Through Digital Storytelling in English Language Teaching: an Integrated Approach 79
Rakhimov Mansur

Nature of Speaking in EFL Contexts: Fluency, Accuracy, and International Competence 83
Rashidova Nodira Khabibullayevna, Egamberdiyeva Marjona Abdurasul kizi

Autizmli bolalarning sensor rivojlanishida ta'lim muhitining o'rni 89
Sh. A. Nurmatova

Ta'limda inson va sun'iy intellekt hamkorligining metodologik transformatsiyasi: inson markazli pedagogik paradigma 94
Tadjimatova Xosiyatxon Botirjon qizi

Ingliz tilini o'qitishda aralash metodlarni qo'llashning didaktik asoslari va darsni loyihalash modeli 102
Usmonova Dilnoza Muratovna

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

Онлайн-проекты как механизм формирования профессиональных навыков у будущих учителей русского языка 106
Матниязова Азиза Бахтияровна

Malakali dzyudochilarni tayyorlashda texnik-taktik mahoratni takomillashtirish mexanizmlariga innovatsion yondashuv 110
Tangriyev Abdullo Tovashevich

Malakali dzyudochilarni xalqaro musobaqalarga tayyorlash tizimini takomillashtirish: Olimpiya saralash davrida rejalashtirish va cho'qqi shaklga chiqarish 116
Tangriyev Abdukarim Tovashevich

Sinfdan tashqari faoliyatlar jarayonida hadislarga asoslangan ma'naviy-axloqiy tarbiyaning pedagogik salohiyati va amaliy asoslarini takomillashtirish 122
Fayzullayeva Gulnoza Kamolovna

Ta'lim loyihalarining iqtisodiy-pedagogik samaradorligini baholashning nazariy-metodologik asoslari 129
Saitxonov Bobomurod Po'latovich

Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar bilan logopedik mashg'ulotlarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish samaradorligi 133
Tojiboyeva Osiyoxon Alisher qizi

Aksiologik yondashuvning pedagogik va psixologik mohiyati 138
Hafizov Shahriyor Shavkatovich

Emotsional intellektni rivojlantirishda kognitiv yondashuvning nazariy-metodologik asoslari 142
Nishonova Lobar Mirzakulovna

Boshlang'ich sinflarda ongli o'qishni leksik-kognitiv yondashuv asosida rivojlantirish 146
Ne'matova Diyora Baxodir qizi, Shabbazova Dilfuza Ruzikulovna

O'qituvchilarda kasbiy stressning yuzaga kelishiga ta'sir etuvchi individual-psixologik omillar 153
Konratbayeva Ayjamal Bazarbayevna

Xorijiy tajribada neyropedagogik yondashuvlar va kognitiv boshqaruv modellari: kengaytirilgan tanqidiy komparativ tahlil 158
Izzatullayeva Zohidaxon Sunatdullayevna

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining pedagogik mahoratini rivojlantirish muammosi: pedagogik tahlil 164
Abrorxonova Kamolaxon Abrorxon qizi, Israilova Oydin Uchkun qizi

O'zbek musiqiy merosi va uni talabalarda qadriyatli munosabat sifatida shakllantirish 169
Mannapov Sultonali, Mansurova Nigoraxon Rustamjonovna

Integrativ ta'lim texnologiyalari va raqamli vositalar asosida bilish kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi 173
Quvvatova Mohira Hikmatillayevna

Maktabgacha ta'limda 6–7 yoshli bolalarning metakognitiv kompetensiyalarini o'yin faoliyati orqali rivojlantirishning texnologik dasturi va uni amaliyotga tatbiq etish tizimi 177
Nuritdinova Xurshida Narpulatovna

Futbol texnikasining asosiy elementlari va texnik harakatlarni bajarish usullarini o'rgatish 182
Sadriddin Tulepov

Innovatsion ta'lim muhiti asosida pedagogika fanini o'qitish modelining samaradorligini tajriba-sinov asosida baholash 187
Abdusattorova Sarvinoz Norqo'zi qizi

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida badiiy idrok va fanga oid kompetensiyalarni rivojlantirishning sinergetik-integrativ asoslari 192
Abdullayeva Feruza Nurillayevna

Rus tilini o'qitish jarayonida talabalarning o'qish va yozish ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi 197
Allayarova Dilfuza Klichevna

Practical Methodological Approaches to Developing Management Skills of Deputy Directors in Preschool Educational Organizations Principles of Connecting Theoretical Knowledge With Practical Activity 201
Makhamadalieva E'zoza Rustamkhuja

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

Kimyo muhandisligi terminologiyasida polisemiya hodisasi 205
Shomurodova Zebiniso Rajabovna

Talabalar o'quv muvaffaqiyatini rivojlantirishning pedagogik, psixologik va texnologik determinantlari 209
Turaboyeva Madinaxon Raxmonjon qizi

O'quvchilarning madaniyatlararo kompetensiyasini mediamatnlar vositasida rivojlantirishga oid xorijiy tajriba tahlili 219
Turdimuratova Aysanem

Искусственный интеллект в преподавании русского языка в узбекоязычной аудитории: возможности, риски и методические решения 224
Мустанов Убайдулла Зулпанович

Shaxs texnologik tafakkuri fenomenining falsafiy-antropologik va gnoseologik talqini 229
Toshpulatova Farida Radjabovna

Lotin tilining zamonaviy tilshunoslikdagi o'rni 234
Shirinkulova Shafoat Malikovna, Rajabova Charos Shavkat qizi

Bo'lajak o'qituvchilar raqamli mediamadaniyatini kasbiy-pedagogik sifat sifatida rivojlantirishning konseptual asoslari 240
Narmanov Alisher Hasanovich

Maktabgacha ta'lim tashkiloti menejerlarining intellektual salohiyatini tashxislashning metodik ta'minotini takomillashtirish 244
Abdumo'minova Lobar Abdujabbarovna

Sun'iy intellekt orqali talabalar kasbiy sifatlarini rivojlantirishning boshlang'ich tushunchalari 249
Normurodov Sherzod Boymurodovich

"Smart o'qish" raqamli platformasi va muallif metodlari asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqiy komponentlarini rivojlantirish 253
Obidova Shohsanam G'anijon qizi

Lingvopoetikada shakl va mazmun birligi xususida nazariy qarashlar 257
Quvonchoy Yusupova

Designing an ESP Coursebook for Architecture Students on the Basis Of VTTSS 262
Sabirova Nilufar Kudratovna

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tasviriy faoliyatni kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etish 266
Xasanova Shaxnoza Toxtasinovna

A Comparative Study of Idiom and Environmental Meaning in the Works of Ernest Hemingway and Tog'ay Murod 272
Zebiniso Allayarova, Malika Bahromova

Maktabgacha ta'limda o'yinga asoslangan ta'limni takomillashtirishning O'zbekiston Respublikasidagi me'yoriy-huquqiy asoslari 277
Farmonov Murodullo Sunnatilloyevich

Обучение русскому языку студентов направления узбекской филологии с использованием искусственного интеллекта: методическая модель 282
Набиева Камиля Азимовна

Bo'lajak tarbiyachilar mediakompitentligini raqamli texnologiyalar vositasida shakllantirish samaradorligini baholash mezonlari va diagnostik vositalari 290
Tavobova Ozoda Farhodovna

Все три брата Лобачевские действительно восприняли талант отца 296
Жумаев Эркин Эргашевич, Аманниязова Бибимариям Пирнияз кызы

Pedagogik tafakkur tarixida fikr tarbiyasi: yondashuvlar va zamonaviy ta'limda qo'llanish imkoniyatlari 302
Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna

Maktabgacha va boshlang'ich ta'limni raqamlashtirish muammolari 306
Raxmatullayeva Malika Bahodir qizi

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining innovatsion pedagogik faoliyatga tayyorgarligini rivojlantirish texnologiyalarining pedagogik imkoniyati 310
Imomkulova Ozoda Norboboyevna

Pedagogika mutaxassisligi magistrlarida tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning interdisiplinar mexanizmlari... 315
Jumaniyazova Go‘zal Baxorovna

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida parametr qatnashgan chiziqli tenglamalarni o‘rganish bo‘yicha ba’zi bir mulohazalar... 319
Musayeva Ziyoda Allayarovna

Bo‘lajak pedagoglarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda muammoli ta’lim va keys-stadi metodlarini integratsiyalash... 325
Namozova Barno Navruzovna

Umumta’lim maktablarida formativ baholash orqali o‘quvchilarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish: pisa yondashuvi asosida... 331
Norqulov Furqat Maxmatmo‘minovich

O‘quvchilarda agressiv xulq-atvorni boshqarish va ijtimoiy xulq-atvorni tarbiyalash usullari... 336
Nusratova Setora Dilshod qizi, Sh. U. Nurullayeva

Bo‘lajak pedagoglarni tayyorlashda STEAM texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik shart-sharoitlari... 343
Raxmatullin Rafis Sagitovich, Zaitov Iskander Ravilevich, Ikromova Rano Ubaydullayevna, Qodirova Raxima Rajabovna, Muratbayeva Aliya Paraxatovna, Juman Turonovich

Shaxs psixik taraqqiyotida ruhiy holat modeli mental resurs tizimining zaruriy asosi sifatida... 348
Xudoyberganova Maqsuda Jumaniyazovna

Maktabga tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarining kreativ tafakkurini o‘yin texnologiyalari asosida rivojlantirish metodikasi (TRIZ va milliy xalq o‘yinlari misolida)... 353
Abdusattorova Umida Abdusamad qizi

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida o‘yinga asoslangan ta’limning imkoniyatlari... 359
Ergasheva Muslima Komiljon qizi

Skoliozi bor talabalarning ijtimoiy-psixologik moslashuvi: shaxslararo munosabatlar va emotsional holat xususiyatlari... 362
Nurullayev Abdurashid Ro‘zimboyevich

Imom Abu Homid G‘azzoliy ilmiy-ma’rifiy merosi asosida oliy ta’lim talabalarini ma’naviy-axloqiy tarbiyalashning metodologik asoslarini takomillashtirish... 366
Ochilov Yakub Saydulloyevich

Socio-Psychological Factors in Staff Management in Early Childhood Education... 371
Tursunova Shaxnoza Elmurodovna

Maktabgacha ta’lim tashkilotlari xodimlarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning innovatsion mexanizmlari... 376
Xudoynazarova Feruza Ilxomovna

O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi: yutuqlar, muammolar va istiqbollar... 380
Yuldasheva Dilnoza Bekmurodovna

Дидактическая модель развития когнитивных учебных действий младших школьников на языковом, текстовом, интерпретационном и трансформационном уровнях усвоения понятия “имя существительное”... 384
Солохиддинова Фазилатхон Мухиддин кизи

Raqamli jamiyatda shaxs qadriyatlarining rivojlanishida metakognitiv jarayonlarning psixologik roli... 389
Raxmonova Zarifa Ne’matovna

“Maktab maslahatchisi”ning 6 vazifasi: ijtimoiy-pedagogik tahlil... 392
Jumanov Sherzod Saloyevich

4K modeli (kreativlik, kommunikativlik, kollaboratsiya, kritik fikrlash)ning paydo bo‘lishi va pedagogik asoslari... 397
Raximova Shoira Adilbekovna

Methods for Increasing the Effectiveness of Professional Activities of Higher Education Professors and Teachers Using Digital Technologies... 401
Qosimov Jahongir Avlaqulovich

Ta’limda sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari va metodik asoslari... 406
Sulaymanova Dildora Baxtiyorovna

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

Oliy ta'limda talabalarda pedagogik jarayonlarni boshqarish kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi ... 410
Mamatova Saodat Maxmudovna

Pedagogical Foundations of Developing Digital Culture in Future Teachers:
A Stage-By-Stage Model and Assessment Criteria ... 415
Urazova Surayyo Elmurod qizi

Atom yadrosi va elementar zarralar fizikasi fanidan laboratoriya mashg'ulotlarini tashkil etishda
axborot texnologiyalarining o'rni ... 419
A. I. Raxmanov

Bo'lajak o'qituvchilarni xulq-atvordagi og'ishlarni korreksiyalashga tayyorlashning
suggestiv-pedagogik mexanizmlari ... 425
Shermatova Manzura Ikromjanovna

Теоретические основы развития творческих способностей младших школьников ... 429
Шукурова Н. Х., Джалолова З.

Boshlang'ich sinf musiqa darslarida multimedia vositalari va interaktiv metodlardan
unumli foydalanishning metodik asoslari ... 433
Uralova Farida Ural qizi

O'qituvchining metodik kompetensiyasini rivojlantirishda generativ sun'iy intellektning
metodik imkoniyatlari va etik jihatlari ... 438
Bahodir Sapparovich Khurramov

Xorazm vohasi ziyoratgoh nomlarining boshlang'ich sinf o'quvchilarida odob-axloq qoidalarini
shakllantirishdagi o'rni ... 444
Rajabova Nilufar Egamberganovna, Kuranbayeva Moxigul Umurbek qizi

Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarida tanqidiy fikrlash kompetensiyasini rivojlantirish:
xalqaro yondashuvlar va o'zbekiston tajribasi ... 448
Aripova Iroda Ikrom qizi

Bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashda raqamli transformatsiya va STEAM loyihalarini integratsiyalash ... 453
Ernazarov Alisher Ergashivich, Nargiza Yodgorova

Современные лучевые методы исследования опорно-двигательного аппарата ... 457
Ш. А. Иброхимов

Atom yadrosi va elementar zarralar fizikasi fanidan laboratoriya mashg'ulotlarini tashkil etishda
axborot texnologiyalarining o'rni ... 460
A. I. Raxmanov

Termin va terminologiyaning lingvistik hamda nazariy talqini ... 466
Jo'rayeva Malohat Muhammadovna

Germaniya va niderlandiyada dual ta'lim tajribasi va uni O'zbekistonda maktabgacha ta'lim yo'nalishi
talabalari ta'limida qo'llash imkoniyatlari ... 473
Alovdinova Iroda Botir qizi

Musiqa ta'limining uzluksiz ta'limdagi pedagogik roli va yoshlarning estetik hamda
ijodiy salohiyatini rivojlantirish ... 480
Abdumannonova Nilufar Baxrom qizi

Maktab o'quvchilarining jismoniy faolligini oshirishda sog'lomlashtirish tadbirlarining
nazariy va amaliy ahamiyati ... 484
Alhamova Sayyora Pirmuhammad qizi

Jismoniy tarbiya va sportning zamonaviy rivojlanish bosqichlari va tendensiyalari O'zbekiston tajribasida ... 490
Aslonova Maloxat Akramovna

11-13 yoshli bolalarning oila va jamiyatda munosabat shakllarining pedagogik xususiyatlari ... 495
Aybekovna Usmanova Umida, Datqayeva Feruza Ubaydullayevna

16 yoshli gandbolchilarda tezkorlikni tarbiyalashning pedagogik asoslari ... 498
Do'smatov Zafarbek Anvar o'g'li

Maktab o'quvchilarida ona tiliga hurmat va nutq madaniyatini shakllantirishning pedagogik omillari ... 504
Erkinova Nafisa Sobitjon qizi

Turnik va brus mashqlarining o‘quvchilar qomati va yelka kamari mushaklari rivojiga ta’siri 510
Ibragimov Shuhratbek Iminjonovich

Raqamli ta’limda zamonaviy texnologiyalarning o‘rni 514
Isaqova Mohinur Solijon qizi

Maktabgacha yoshdagi bolalarning raqamli qurilmalardan foydalanishi va jonli muloqoti o‘rtasidagi bog‘liqlik 518
Jumaniyazova Zulfiya Aitbayevna

Maktabgacha tarbiya muassasalari sharoitida bolalarning harakat potensialini maqsadli rivojlantirish texnologiyasi 522
Muxammadova Shahlo Salimjon qizi

Voleybol sportida texnik-taktik tayyorgarlikni takomillashtirishning zamonaviy metodlari..... 527
Normaxmatov Ilxom Zayniddinovich

O‘quvchilarda agressiv xulq-atvorni boshqarish jarayonining asosiy talablari va pedagogik-psixologik asoslari..... 530
Nusratova Setora Dilshod qizi, Sh. U. Nurullayeva

Manzara janri bo‘yicha ijodiy ishlarni badiiy va ekologik mezonlar asosida baholash..... 536
Obidov Bexzod Zokirjon o‘g‘li

Jismoniy tarbiya va sportni raqamlashtirishgning pedagogik imkoniyatlari 540
Pirimova Nargiza Adilovna

Texnika yo‘nalishi talabalarining jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarida raqamli vositalar orqali pedagogik nazoratni takomillashtirish..... 545
Ravshanov Bexruz Xasanovich, Mirzayev Olim Saidovich

11–16 yoshli dzyudochilarda umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarlik o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni ilmiy asoslash 549
Sag‘dullayev Zuhriddin Akbar o‘g‘li

Umumta’lim maktablarida o‘quvchilar davomati boshqaruvining zamonaviy tashkiliy mexanizmlari..... 554
Shaxobiddinov Ravshanbek Shamsitdin o‘g‘li

STEAM fanlarni o‘qitishda o‘quvchilarda kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasini joriy etishda STEAM ta’limining o‘ziga xos xususiyatlari, metadologik modeli va shart-sharoitlari..... 559
Tursunaliyeva Nazokat Toxir qizi

Jismoniy tarbiya darslarida kompetensiyaviy yondashuv asosida talabalarning harakat faolligini oshirish texnologiyasi 563
Umarova Umida Faxriddin qizi

Kompetensiyaviy yondashuv asosida jismoniy tarbiya darslarida o‘quvchilarni tarbiyalashda pedagogik jarayonlarni tashkil qilish usullari..... 568
Xo‘jamov Temur To‘lqin o‘g‘li

Geografiya fanlarini o‘qitishda iqtisodiy va ijtimoiy kompetensiyalarning o‘rni va ahamiyati 573
Xoliqova Mahbuba Orifjonovna

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘quvchilar kun tartibidagi jismoniy tadbirlarni tashkil etish va o‘tkazish ... 577
Yuldashova Soliha Ergash qizi

Maktabgacha yoshdagi bolalarda o‘zini-o‘zi anglashning rivojlanishi..... 582
Zohidova Dilfuza Abdukhalilovna

UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA O'QUVCHILAR DAVOMATI BOSHQARUVINING ZAMONAVIY TASHKILIY MEXANIZMLARI

Shaxobiddinov Ravshanbek Shamsitdin o'g'li
Namangan davlat universiteti tadqiqotchisi
Namangan, O'zbekiston

Annotatsiya: Maqolada umumta'lim maktablarida o'quvchilar davomatini boshqarishning tashkiliy mexanizmlari tahlil qilinadi. Muallif davomatsizlik, surunkali davomatsizlik, maktabdan qochish va ta'limni tashlab ketish tushunchalarini izchil farqlab, ularning har biri alohida boshqaruv choralarini talab qilishini asoslaydi. Tadqiqotda beshta tashkiliy mexanizm – qayd etish tizimi, erta ogohlantirish, javobgarlikni taqsimlash, oila bilan aloqa kanali va bosqichli aralashuv mexanizmlari ajratib ko'rsatiladi va tavsiflanadi hamda ularning o'zaro bog'liqligi yoritiladi. Davomatsizlikka munosabatda jazolashga asoslangan va ehtiyojlarga yo'naltirilgan yondashuvlar o'rtasidagi ilmiy munozara tahlil qilinib, dalillarga asoslangan pozitsiya ilgari suriladi. Olingan natijalar maktab darajasidagi boshqaruv tizimini loyihalash uchun nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: o'quvchilar davomati, surunkali davomatsizlik, tashkiliy mexanizm, erta ogohlantirish, bosqichli aralashuv, maktab boshqaruvi, oila bilan hamkorlik, davomat nazorati.

Abstract: The article analyses the organisational mechanisms for managing student attendance in general secondary schools. The author systematically distinguishes between absence, chronic absenteeism, truancy, and school dropout, arguing that each requires a distinct management response. The study identifies and describes five organisational mechanisms: attendance recording, early warning, allocation of responsibility, family communication channels, and tiered intervention. It also examines the interrelationships among these mechanisms. The article analyses the scholarly debate between punitive and needs-based approaches to absenteeism and advances an evidence-informed position. The findings provide a theoretical foundation for designing school-level management systems.

Key words: student attendance, chronic absenteeism, organisational mechanism, early warning, tiered intervention, school management, family partnership, attendance monitoring.

Аннотация: В статье анализируются организационные механизмы управления посещаемостью учащихся в общеобразовательных школах. Автор последовательно разграничивает понятия непосещаемости, хронической непосещаемости, прогулов и прекращения обучения, обосновывая необходимость применения различных управленческих мер в каждом из этих случаев. В исследовании выделяются и описываются пять организационных механизмов: система учёта, раннее оповещение, распределение ответственности, канал связи с семьёй и ступенчатое вмешательство. Также раскрывается взаимосвязь между ними. Анализируется научная дискуссия между карательным и ориентированным на удовлетворение потребностей подходами к решению проблемы непосещаемости, на основе которой формулируется аргументированная позиция. Полученные результаты служат теоретической основой для проектирования системы управления на уровне школы.

Ключевые слова: посещаемость учащихся, хроническая непосещаемость, организационный механизм, раннее оповещение, ступенчатое вмешательство, управление школой, сотрудничество с семьёй, контроль посещаемости.

KIRISH

O'quvchilarning darslarga muntazam qatnashishi ta'lim natijalarini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Bu bog'liqlikning mohiyati oddiy: o'quv dasturi izchil ketma-ketlik asosida tuzilgan bo'lib, o'tkazib yuborilgan mavzu keyingi mavzularni o'zlashtirishni qiyinlashtiradi. Davomatsizlikning to'planishi esa bilimlardagi uzilishlarni keltirib chiqaradi va bu uzilishlar vaqt o'tishi bilan o'z-o'zidan bartaraf etilmaydi. Shu sababli davomat masalasi maktab boshqaruvining ikkinchi darajali emas, balki markaziy vazifalaridan biri hisoblanadi. Biroq amaliyotda u ko'pincha nazorat vazifasi darajasida ko'riladi: davomat qayd etiladi, darsga kelmaganlar belgilanadi va hisobot tayyorlanadi. Bunday yondashuvda hisobotning o'zi maqsadga aylanadi, qayd etilgan ma'lumotlar qanday boshqaruv qarorlarini keltirib chiqarishi masalasi esa ochiq qoladi.

Mazkur maqolaning maqsadi umumta'lim maktablarida o'quvchilar davomatini boshqarishning tashkiliy mexanizmlarini aniqlash va ularning o'zaro bog'liqligini asoslashdan iborat.

Tadqiqot vazifalari quyidagilardan iborat:

- davomat sohasidagi asosiy tushunchalarni farqlash;
- tashkiliy mexanizmlarni ajratish va tavsiflash;
- ularning o'zaro bog'lanish mantiqini ko'rsatish;
- davomatsizlikka munosabat masalasidagi ilmiy bahslarni ko'rib chiqish.

Tadqiqotda tashkiliy mexanizm deganda muayyan natijaga erishish uchun belgilangan, takroran amalga oshiriladigan va mas'ul shaxslarga biriktirilgan harakatlar tartibi tushuniladi. Ushbu ta'rifning muhim jihati shundaki, mexanizm tadbirdan farq qiladi: tadbir bir marta o'tkaziladi va yakunlanadi, mexanizm esa muntazam ishlaydi hamda uning faoliyati muayyan signal asosida boshlanadi.

Masalaning tushunchaviy jihati alohida e'tiborni talab qiladi. Amaliyotda bir-biridan farq qiluvchi bir qancha hodisalar bitta atama ostida birlashtiriladi: kasallik tufayli darsga kelmaslik, oilaviy sabablarga ko'ra uzoq muddat darslarda qatnashmaslik, ota-onaning xabardorligisiz dars qoldirish va umuman o'qishni tashlab ketish. Bu hodisalarning sabablari ham, oqibatlari ham, ularga nisbatan qo'llaniladigan choralar ham turlicha. Ularni farqlamaslik boshqaruv qarorlarining noaniq bo'lishiga olib keladi.

Mavzuning dolzarbligi ta'lim sifatini oshirish vazifasi bilan bevosita bog'liq. Davomat ta'lim natijalariga ta'sir qiluvchi omillar orasida nisbatan oson o'lchanadigan ko'rsatkich hisoblanadi va shu sababli boshqaruv uchun qulay tayanch nuqtasini ta'minlaydi. Shu bilan birga, uning qulayligi muayyan xavfni ham yuzaga keltiradi: oson o'lchanadigan ko'rsatkich oson boshqariladigan ko'rsatkichga aylanadi va natijada asl maqsad o'rnini ko'rsatkichni yaxshilash egallashi mumkin.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Davomatsizlik hodisasining tizimli tahlili K. Kirni ishlarida yoritilgan. Muallif maktabga bormaslik hodisasini yagona sabab bilan emas, balki to'rtta turli vazifa bilan izohlashni taklif etadi: o'quvchi noxush his-tuyg'ularni keltirib chiqaruvchi vaziyatlardan qochishi, ijtimoiy baholanishdan qochishi, e'tibor qozonishi yoki maktabdan tashqaridagi jozibador mashg'ulotlarda ishtirok etishga intilishi mumkin. Kirnining asosiy xulosasi shundan iboratki, bir xil tashqi xatti-harakat turli ichki sabablarga ega bo'lishi mumkin. Shu sababli barcha holatlarga bir xil yondashuv samarali natija bermaydi.

R. Balfanz va V. Byornsning tadqiqotlarida surunkali davomatsizlik tushunchasi alohida tahlil predmeti sifatida ajratilgan. Mualliflar oddiy va surunkali davomatsizlikni farqlash zarurligini asoslaydilar: birinchisi tasodifiy bo'lishi va o'z-o'zidan bartaraf etilishi mumkin, ikkinchisi esa to'planib boradigan hamda barqaror salbiy oqibatlarni keltirib chiqaradigan hodisadir. Ularning yondashuvidagi muhim jihat shundaki, surunkali davomatsizlik o'rtacha ko'rsatkichlarda yaqqol namoyon bo'lmasligi mumkin. Ya'ni sinfning o'rtacha davomat darajasi yuqori bo'lgan taqdirda ham ayrim o'quvchilar jiddiy darajada dars qoldirayotgan bo'lishi mumkin.

J. Epstayn va S. Sheldonning oila va maktab hamkorligiga oid tadqiqotlari davomat masalasining ijtimoiy jihatini ochib beradi. Mualliflar maktabning oila bilan muntazam aloqasi davomat ko'rsatkichlari bilan bog'liqligini ko'rsatganlar hamda ushbu aloqaning shakli ogohlantirishga emas, balki qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan bo'lishi lozimligini ta'kidlaganlar. M. Gottfridning ishlari esa davomatsizlikning ta'lim natijalariga ta'sirini o'rganib, uning to'planib boruvchi xususiyatini dalillar asosida yoritadi.

Boshqaruv nazariyasi doirasida mazkur masala tashkiliy tuzilma nuqtai nazaridan ko'rib chiqiladi. G. Mintsbergning tashkiliy tuzilmalar nazariyasi mas'uliyatni taqsimlash va muvofiqlashtirish mexanizmlarini tahlil qilish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

U. Ouchining tashkiliy nazorat mexanizmlariga oid ishlari esa nazoratning turli shakllarini – natijalar, xatti-harakatlar va qadriyatlar asosidagi nazoratni – farqlash imkonini beradi. Ushbu farqlashni davomatni boshqarish jarayoniga tatbiq etish muhim xulosalar chiqarishga yordam beradi.

Ko'rib chiqilgan manbalarning umumlashtirilgan tahlili ilmiy adabiyotlarda muayyan bo'shliq mavjudligini ko'rsatadi. Davomatsizlikning sabablari va oqibatlari xorijiy adabiyotlarda batafsil o'rganilgan, boshqaruv nazariyasida esa tashkiliy mexanizmlarning umumiy tavsifi mavjud. Biroq ushbu ikki yo'nalish o'rtasidagi bog'liqlik yetarlicha yoritilmagan: davomatsizlikka oid tadqiqotlarda tashkiliy mexanizmlar yaxlit tizim sifatida tavsiflanmaydi, boshqaruvga oid adabiyotlarda esa davomat alohida boshqaruv obyekti sifatida ko'rib chiqilmaydi.

Mazkur maqolada ushbu ilmiy bo'shliqni to'ldirish vazifasi qo'yiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot nazariy xarakterga ega bo‘lib, unda tushunchaviy tahlil, tizimli yondashuv, tarkibiy-funksional tahlil va modellashtirish usullari qo‘llanilgan. Tushunchaviy tahlil davomat sohasidagi atamalarni farqlash uchun zarur bo‘ldi. Bu farqlash uslubiy shart hisoblanadi, zero turli hodisalarni bitta atama ostida birlashtirish boshqaruv qarorining noaniq shakllantirilishiga olib keladi.

Tizimli yondashuv mexanizmlarni alohida chora-tadbirlar yig‘indisi sifatida emas, balki o‘zaro bog‘liq tizim sifatida ko‘rib chiqish imkonini berdi. Tarkibiy-funksional tahlil har bir mexanizmning tizimdagi aniq vazifasini belgilash uchun qo‘llanildi. Mexanizmlarni ajratishda ularning har biri mustaqil ishga tushish signaliga va aniq javobgar shaxsga ega bo‘lishi mezon sifatida belgilandi. Tadqiqot doirasida statistik ma’lumotlar to‘planmagan va muayyan maktablarning amaliyoti o‘rganilmagan. Shu sababli taklif etilayotgan model nazariy loyiha sifatida taqdim etiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Birinchi natija tushunchalarni farqlashdan iborat. Davomatsizlik – o‘quvchining muayyan darsda yoki kunda bo‘lmasligi. U sababli va sababsiz turlarga ajratiladi hamda alohida olinganda boshqaruv muammosi hisoblanmaydi. Surunkali davomatsizlik – o‘quv yili davomida dars qoldirishning belgilangan chegaradan oshishi. U to‘planib boruvchi xususiyatga ega va o‘quv natijalariga barqaror ta’sir ko‘rsatadi. Maktabdan qochish – ota-onaning xabarisiz dars qoldirish holati bo‘lib, bunda oila va maktab o‘rtasida axborot uzilishi mavjud bo‘ladi. Ta’limni tashlab ketish – o‘qishni to‘xtatish holati bo‘lib, u oldingi uch hodisaning rivojlanishi natijasida yuzaga kelishi mumkin.

Ikkinchi natija birinchi mexanizm – qayd etish tizimini tavsiflashdan iborat. Ushbu mexanizmning vazifasi shunchaki ma’lumot to‘plash emas, balki boshqaruv uchun yaroqli ma’lumotlarni shakllantirishdir. Buning uchun uchta shart bajarilishi lozim: qayd o‘z vaqtida amalga oshirilishi, ya’ni kechikish bir kundan oshmasligi; har bir yo‘qlik holati sababiga ko‘ra tasniflanishi; ma’lumotlar har bir o‘quvchi bo‘yicha alohida to‘planishi, ya’ni yig‘indi ko‘rsatkichlar bilan cheklanmay, o‘quvchining individual davomat tarixi shakllantirilishi. Uchinchi shartning bajarilmasligi eng ko‘p uchraydigan kamchiliklardan biri hisoblanadi, zero yig‘indi ko‘rsatkichlar surunkali davomatsizlikni aniqlash imkonini bermaydi.

Uchinchi natija erta ogohlantirish mexanizmining mohiyatini ochib beradi. Uning asosiy vazifasi muammo chuqurlashishidan oldin signal berishdan iborat. Buning uchun oldindan belgilangan chegaralar zarur: masalan, ketma-ket uch kun davomida dars qoldirish yoki oy davomida belgilangan miqdordan ortiq dars qoldirish signalni ishga tushiradi. Mexanizmning hal qiluvchi xususiyati shundaki, signal avtomatik ravishda shakllanishi kerak. U pedagogning shaxsiy e’tiboriga emas, balki oldindan belgilangan qoidalarga tayanishi lozim. Aks holda, signalning ishga tushishi tasodifiy tus oladi.

To‘rtinchi natija javobgarlikni taqsimlash mexanizmini tavsiflaydi. Davomat masalasida javobgarlikning tarqoqligi odatiy muammolardan biri hisoblanadi. Sinf rahbari, fan o‘qituvchisi, ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha mas’ul xodim va ma’muriyat o‘rtasida vazifalar aniq chegaralanmaganda, har bir tomon mas’uliyatni boshqasiga yuklashi mumkin. Mexanizm javobgarlikning uch darajasini nazarda tutadi: birlamchi javobgarlik sinf rahbariga yuklanadi, signal ishga tushganda masala ijtimoiy pedagog vakolatiga o‘tkaziladi, surunkali holatlarda esa masala ma’muriyat darajasiga ko‘tariladi. Har bir bosqichga o‘tish uchun aniq shartlar va muddatlar belgilanishi lozim.

Beshinchi natija oila bilan aloqa kanali mexanizmiga tegishli. Tahlil aloqa kanalining ikki xil shaklini farqlash imkonini beradi. Ogohlantiruvchi aloqa muammo yuzaga kelganda boshlanadi va ko‘pincha ayblov ohangida kechadi. Buning natijasida, odatda, himoyalanish reaksiyasi yuzaga keladi. Qo‘llab-quvvatlovchi aloqa esa muntazam xususiyatga ega bo‘lib, muammo mavjud bo‘lmagan paytda ham davom etadi. Shu sababli muammo yuzaga kelganda tomonlar o‘rtasida avvaldan shakllangan ishonch mavjud bo‘ladi. Epstayn va Sheldon tadqiqotlari ikkinchi shaklning samaraliroq ekanini ko‘rsatadi.

Oltinchi natija bosqichli aralashuv mexanizmini asoslashdan iborat. Uning mantig‘i quyidagicha: aralashuv darajasi muammoning jiddiyligiga mos bo‘lishi kerak. Birinchi bosqichda butun sinf miqyosida profilaktik ishlar olib boriladi; ikkinchi bosqichda ogohlantirish signalini bergan o‘quvchilar bilan guruhli ish tashkil etiladi; uchinchi bosqichda esa surunkali davomatsizlik kuzatilayotgan o‘quvchi uchun individual reja tuziladi. Mexanizmning afzalligi resurslardan oqilona foydalanish imkoniyatida namoyon bo‘ladi: eng ko‘p mehnat talab qiladigan individual ish faqat unga haqiqatan ehtiyoj mavjud bo‘lgan holatlarga yo‘naltiriladi.

Yettinchi natija mexanizmlarning o‘zaro bog‘liqligini ko‘rsatadi. Ular ketma-ket zanjirni hosil qiladi: qayd etish tizimi ma’lumotlarni shakllantiradi, erta ogohlantirish mexanizmi signalni yuzaga keltiradi, javobgarlikni

taqsimlash mexanizmi signalni aniq mas'ul shaxsga yo'naltiradi, oila bilan aloqa kanali muammoning sababini aniqlash imkonini beradi, bosqichli aralashuv esa javob choralarining darajasini belgilaydi. Zanjirning har bir bo'g'ini keyingi bo'g'inning ishlashi uchun zarur shart-sharoitni yaratadi. Biror bo'g'inning uzilishi butun tizim faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Masalan, qayd etish tizimi faqat yig'indi ko'rsatkichlarni taqdim etsa, erta ogohlantirish mexanizmi surunkali davomatsizlik holatlarini o'z vaqtida aniqlash uchun zarur signalni shakllantira olmaydi. Davomatsizlikka munosabat masalasida ikki yondashuv o'rtasida ilmiy bahs mavjud.

Birinchi yondashuv masalani intizomiy nuqtai nazardan ko'rib chiqadi: davomat majburiy, uning buzilishi qoidabuzarlik hisoblanadi va unga nisbatan ogohlantirish, ota-onaning javobgarligi hamda ma'muriy ta'sir choralari qo'llaniladi. Bu pozitsiyaning asosi aniq: majburiy ta'lim huquqiy me'yor bo'lib, uning bajarilishi ta'minlanishi kerak.

Ikkinchi yondashuv K. Kirni ishlarida ifodalangan bo'lib, unda davomatsizlik xatti-harakatning o'zi emas, balki muayyan holatning belgisi sifatida qaraladi. Kirnining dalili quyidagicha: o'quvchining maktabga bormasligi uning qoidalarni buzish istagini emas, balki muayyan ehtiyojning qondirilmaganini ko'rsatishi mumkin. Bu qo'rquv, ijtimoiy qiyinchilik, oilaviy vaziyat yoki o'zlashtirishdagi uzilish bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Bundan quyidagi xulosa kelib chiqadi: javob choralari sababga qarab tanlanishi lozim, chunki barcha holatlarga bir xil chora qo'llash samarasiz bo'lishi mumkin.

Ikki pozitsiyaning tahlili ularning turli hodisalarga taalluqli ekanini ko'rsatadi va bu mazkur tadqiqotda tushunchalarni farqlashning ahamiyatini tasdiqlaydi. Intizomiy yondashuv maktabdan qochish holatiga, ya'ni ota-onaning xabardorligisiz dars qoldirishga nisbatan o'rinli, zero bu yerda masala haqiqatan ham qoidalarga munosabat bilan bog'liq. Surunkali davomatsizlik holatida esa intizomiy choralar ko'pincha teskari natija beradi: jazo o'quvchining maktabga munosabatini yanada yomonlashtirishi va muammoni chuqurlashtirishi mumkin.

Mazkur tadqiqotda quyidagi pozitsiya asoslanadi: javob choralari turi hodisaning xususiyatiga qarab belgilanishi kerak va bu tanlov tasodifiy bo'lmasdan, aniq mezonga tayanishi lozim. Mezon sifatida sabab taklif etiladi: agar dars qoldirish sababi aniqlanmagan bo'lsa, birinchi qadam chora ko'rish emas, balki sababni aniqlash bo'lishi kerak. Bu qoida sodda ko'rinsa-da, amalda ko'pincha buziladi: sabab aniqlanmasdan chora ko'riladi va natijada tanlangan chora vaziyatga mos kelmaydi.

Muhokamadan kelib chiqadigan yana bir xulosa o'lchov masalasiga tegishli. Davomat ko'rsatkichi maktab faoliyatini baholashda ishlatilsa, u boshqariladigan ko'rsatkichga aylanadi va qayd etish amaliyotiga bevosita ta'sir qiladi. Bu xavfni kamaytirish uchun yagona ko'rsatkich bilan cheklanmasdan, bir nechta ko'rsatkichdan foydalanish va ularni o'quv natijalari bilan birgalikda ko'rib chiqish lozim.

XULOSA

Olib borilgan tadqiqot davomatni boshqarishdagi asosiy muammo ma'lumot yetishmasligida emas, balki to'plangan ma'lumotlarning boshqaruv qarorlariga aylantirilmasligida ekanini ko'rsatdi. Qayd etish tizimi ishlagan va hisobot tayyorlangan taqdirda ham, agar ma'lumot aniq signalni shakllantirmasa va ushbu signal muayyan javobgar shaxsga yo'naltirilmasa, tizim kutilgan natijani bermaydi. Tushunchaviy farqlash tadqiqotning asosiy uslubiy natijasi bo'ldi: davomatsizlik, surunkali davomatsizlik, maktabdan qochish va ta'limni tashlab ketish turli hodisalar bo'lib, ularning har biri alohida yondashuvni talab qiladi. Ushbu hodisalarni bitta atama ostida birlashtirish boshqaruv qarorlarining mavjud vaziyatga mos kelmasligiga olib keladi.

Beshta tashkiliy mexanizm – qayd etish tizimi, erta ogohlantirish, javobgarlikni taqsimlash, oila bilan aloqa kanali va bosqichli aralashuv – ajratildi va tavsiflandi. Ularning zanjirsimon bog'liqligi ko'rsatildi: har bir mexanizm keyingisining ishlashi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi, biror bo'g'inning uzilishi esa butun tizim faoliyatini izdan chiqaradi. Davomatsizlikka munosabat bo'yicha bahs tahlili intizomiy va ehtiyojlarga yo'naltirilgan yondashuvlar turli hodisalarga nisbatan qo'llanilishini ko'rsatdi.

Asosiy amaliy qoida quyidagicha shakllantirildi: sabab aniqlanmaguncha chora ko'rilmaydi. Keyingi tadqiqotlar uchun istiqbolli yo'nalishlar quyidagilardan iborat: erta ogohlantirish chegaralarini mahalliy sharoitda aniqlash, mexanizmlarning samaradorligini maktablar amaliyotida tekshirish va qayd etish tizimining nosozliklarga chidamliligini oshirish yo'llarini o'rganish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Fayol H. Administration industrielle et générale. – Paris: Dunod, 1916. – 174 p.
2. Mintzberg H. The Structuring of Organizations: A Synthesis of the Research. – Englewood Cliffs: Prentice-Hall, 1979. – 512 p.
3. Ouchi W. G. A Conceptual Framework for the Design of Organizational Control Mechanisms // Management Science. – 1979. – Vol. 25, No. 9. – P. 833–848.
4. Epstein J. L., Sheldon S. B. Present and Accounted For: Improving Student Attendance Through Family and Community Involvement // The Journal of Educational Research. – 2002. – Vol. 95, No. 5. – P. 308–318.

5. Reid K. The Causes of Non-Attendance: An Empirical Study // Educational Review. – 2008. – Vol. 60, No. 4. – P. 345–357.
6. Kearney C. A. An Interdisciplinary Model of School Absenteeism in Youth to Inform Professional Practice and Public Policy // Educational Psychology Review. – 2008. – Vol. 20, No. 3. – P. 257–282.
7. Balfanz R., Byrnes V. The Importance of Being in School: A Report on Absenteeism in the Nation's Public Schools. – Baltimore: Johns Hopkins University Center for Social Organization of Schools, 2012. – 46 p.
8. OECD. Equity and Quality in Education: Supporting Disadvantaged Students and Schools. – Paris: OECD Publishing, 2012. – 168 p.
9. Gottfried M. A. Chronic Absenteeism and Its Effects on Students' Academic and Socioemotional Outcomes // Journal of Education for Students Placed at Risk. – 2014. – Vol. 19, No. 2. – P. 53–75.
10. Gottfried M. A., Hutt E. L. (eds.). Absent from School: Understanding and Addressing Student Absenteeism. – Cambridge, MA: Harvard Education Press, 2019. – 240 p.

13.00.00 Pedagogika fanlari
13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi
13.00.02 Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo‘yicha)
13.00.03 Maxsus pedagogika
13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlari nazariyasi va metodikasi
13.00.05 Kasb-hunar ta’limi nazariyasi va metodikasi
13.00.06 Elektron ta’lim nazariyasi va metodikasi (ta’lim sohalari va bosqichlari bo‘yicha)
13.00.07 Ta’limda menejment
13.00.08 Maktabgacha ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
07.00.00 Tarix fanlari
19.00.00 Psixologiya fanlari
01.00.00 Fizika-matematika fanlari
02.00.00 Kimyo fanlari
03.00.00 Biologiya fanlari
09.00.00 Falsafa fanlari
10.00.00 Filologiya fanlari
11.00.00 Geografiya fanlari

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov
Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov
Musahhih: Alibek Zokirov
Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №10(4)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№C–5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.